



**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Sog‘liqni saqlash vaziri**

**A. Xudayarov**

2026-yil 28-fevral

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi  
Hay‘ati yig‘ilishining  
2-sonli B A Yo N I**

**Raislik qildi:**

A.Xudayarov - O‘zbekiston Respublikasi  
Sog‘liqni saqlash vaziri

**Ishtirok etdi:**

Sog‘liqni saqlash vazirligi Hay‘at a‘zolari, sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosarlari, Markaziy apparat boshqarma boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri va uning o‘rinbosarlari, Toshkent shahar va viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari va o‘rinbosarlari, Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi xizmatining hududiy boshqarma boshliqlari, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari direktorlari, respublika tibbiyot tashkilotlari rahbarlari, oliy tibbiy ta‘lim o‘quv yurtlari rektorlari, respublika va viloyat tibbiyot muassasalari bosh shifokorlari, tuman va shahar tibbiyot birlashmalari boshliqlari

**K U N T A R T I B I:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-sonli va “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va «O‘zbekiston — 2030» strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-22-sonli Farmonlari haqida.

2. Tizimdagi tibbiyot tashkilotlari faoliyatini o‘rganishda qayd etilayotgan xato va kamchiliklar.

3. Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi o'rtasida 2025-2027-yillarga tuzilgan tarmoq jamoa kelishuvining 2025-yildagi ijrosi to'g'risida.

4. Boshqa masalalar.

---

*(Xudayarov, Boboyev, Basitxanova, Tashpulatov, Omonov, Xanapiyayev, Yusupaliyev, Azizov, Xudayarov)*

Hay'at yig'ilishining kun tartibiga qo'yilgan barcha masalalar yuzasidan vazir va ma'ruzachilar tomonidan tegishliligi bo'yicha batafsil axborot berildi.

Shuningdek, kun tartibida ijro intizomi, aholi murojaatlari va boshqa masalalar ham ko'rildi, tegishli boshqarma va bo'linmalar boshliqlari tomonidan axborotlar berildi.

**Hay'at qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2026-yil 16-fevraldagi **PF-21**-son Farmoni:

ijrosini ta'minlash bo'yicha "Yo'l haritasi" **1-ilovaga** muvofiq;

"Kunbay kalendar jadvali" **2-ilovaga** muvofiq;

"O'zbekiston-2030" strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha mas'ullar tarkibi **3-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida" 2026-yil 16-fevraldagi **PF-22**-son Farmoni:

ijrosi yuzasidan "Yo'l haritasi" **4-ilovaga** muvofiq;

"Kunbay kalendar jadvali" **5-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-son Farmonlari ijrosini ta'minlash bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligining ishchi guruhi tarkibi **6-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. **Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri, Toshkent shahar va viloyat sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari, respublika tassarufidagi tibbiyot tashkilotlari rahbarlari:**

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi maqsadlarining samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha **birinchi rahbarlariga shaxsiy mas'uliyat** yuklansin;

tuman va shahar, viloyat va respublika darajasidagi tibbiyot tashkilotlari "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va Davlat dasturini amalga oshirish yuzasidan tasdiqlanadigan "yo'l xarita"larda belgilangan vazifalarni o'z muddatida va sifatli bajarilishini ta'minlasin;

**har oy va chorak yakunida** “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va Davlat dasturidagi topshiriqlar ijrosi bo‘yicha ma‘lumotlarni vazirlikka taqdim etib borishlari belgilansin.

barcha shifoxonalarda shifo o‘rinlari faoliyatini doimiy ravishda tahlil etib, byudjet va pullik o‘rinlaridan samarali foydalanish choralari ko‘rsin;

shifo o‘rinlaridan foydalanishda qayd etilgan xato va kamchiliklarni muntazam bartaraf etib, 2025 yil uchun topshirilgan “2-SSV-shifo o‘rinlari bo‘yicha”, “xodimlar to‘g‘risidagi 15-SSV”, “aholining kasallanish holati bo‘yicha 12-SSV” hisobot shakllarini qayta ko‘rib chiqsin;

barcha ambulatoriya-poliklinika muassasalari tomonidan xisobot shakllarining to‘g‘ri va muddatida taqdim etilishini muntazam nazorat qilishsin;

hududlarda o‘tkazilayotgan “Salomatlik marafoni”ni vazirlikning 355-son buyrug‘i talablari asosida to‘g‘ri va sifatli tashkil etilishini nazoratga olsin.

**Strategik rejalashtirish va axborot-tahlil bo‘limi** (M.Mo‘minov), **Vazir kotibiyati** (F.Rahimqulov), **Nazorat inseksiyasi va JST masalalari boshqarmasi** (D.Sultanov) “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi maqsadlarining samaradorlik ko‘rsatkichlari va topshiriqlarining har bir tuman, shahar, viloyat va respublika tashkilotlari tomonidan ijro etilishini nazoratga olib ijrosi bo‘yicha tarmoq rejani ishlab chiqsin.

**3. Vazirning birinchi o‘rinbosari** (A.Bobojev), **Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti** (A.Alijanov):

**uch kun muddatda** onkologiya bilan kasallangan bemorlar soni to‘g‘risidagi yakuniy ma‘lumotlarni Sog‘liqni saqlash vaziriga taqdim etsin;

onkoogohlik bo‘yicha respublikadagi holatni tahlil qilib, hududlarni tuman darajasida 3 ta (**qizil, sariq va yashil**) hududlarga ajratib, doimiy monitoring olib borilishini ta‘minlasin;

hududlarda o‘tkazilayotgan “Salomatlik marafoni”ga umumiy rahbarlikni olib borsin.

**4. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi** (O.Sultonov):

4.1. **bir kun muddatda** onkologiya markazi filiallari rahbarlarini lavozimidan ozod etish hamda ularning har biri bilan 6 oy muddatga yangi mexnat shartnomani tuzish bo‘yicha buyruqni rasmiylashtirsin.

Bunda, shartnomada “O‘zbekiston — 2030” strategiyasidagi okologiyaga taalluqli 5 ta strategik ko‘rsatkichlarning bajarilishini ta‘minlash, holatni yaxshilash va belgilangan maqsadlarga erishish uchun o‘zining ish rejasini taqdim qilish nazarda tutilsin.

4.2. **Uch kun muddatda** onkologiya markazining filiallarida yo‘l qo‘yilgan xato kamchiliklarni bartaraf etish hamda 2026 yilda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar yuzasidan tushuntirish xatlarini olsin.

4.3. **Bir hafta muddatda** Qarshi SHTB, Olot, G'uzor, Bekobod, Urganch, Yangiariq TTB va Chinoz SEOvaJS hududiy boshqarmasi rahbarlaridan tibbiyot xodimlarining mehnat muhofazasi (tasdiqlangan bitimlar asosida) bo'yicha yo'll qo'yilgan kamchiliklari yuzasidan vazir nomiga tushuntirish olsin.

**5. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi** (K.Sedat) **bir oy muddatda** Markaz direktori o'rinbosarlari va hududiy filiallar rahbarlari lavozimiga rezerv kadrlar tayyorlab, ro'yxatni vazirlikka taqdim qilsin.

Bunda, Onkologiya markazining Surhondaryo viloyati filiali rahbarini almashtirish bo'yicha taklif kiritsin.

**6. Vazir kotibiyati** (F.Raximqulov):

Surhondaryo viloyati onkologiya va pediatriya xizmatlarining faoliyati yuzasidan axborotni **navbatdagi Hay'at yig'ilishi** kun tartibiga kiritsin.

Bunda, **Onkologiya** (K.Sedat) va **Pediatriya** (A.Abdukayumov) markazlari axborot berishga tayyorgarlik ko'rsin;

**iyul oyida o'tkaziladigan** Hay'at yig'ilishining kun tartibiga Onkologiya markazi va uning **14 ta** xududiy filiallari rahbarlarining hisobotlarini eshitish to'g'risidagi masalani kiritsin.

**7. Komplaens-nazorati xizmati** (S.Mamanov):

7.1. **Bir oy muddatda** onkologiya sohasida dori vositalari bilan ta'minlanish holatini "sirli mijoz" mexanizmi orqali o'rganish o'tkazib, ma'lumot kiritsin.

7.2. **Nazorat Inspeksiyasi** (D.Sultanov), bilan birga yil yakuniga qadar onkologiya kasalligi bilan bog'liq har bir shikoyat (murojaat)ni o'rganish bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazib borsin.

7.3. **Dori vositalarining ehtiyojini aniqlash bo'limi** (U.Shukurov) va **Nazorat inspeksiyasi** (D.Sultanov) bilan birgalikda onkologiya muassasalarida dori vositalarning ishlatilishini o'rganib, aniq faktlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritish choralari ko'rsin.

**8. OITsga qarshi kurash markazi** (B.Egamberdiev), **Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi** (Z.Ashurov), **Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi** (U.Sobirov):

OIV, narkologik va ruhiyat buzilishlar, zaxm va so'zak kasalliklariga chalingan bemorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan mas'ul xodimlar tomonidan DMED yagona tibbiyot axborot tizimi orqali (*kasallik XKT-10 kodi va MFY nomi ko'rsatilgan holda*) o'z vaqtida taqdim etilishini nazoratga olsin.

**9. Salomatlik va strategik rivojlanish instituti** (A.Inoyatov)ga:

barcha tibbiyot tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan aholining kasallanish holati bo'yicha hisobot shakllari ustidan qat'iy monitoring o'rnatib, natijasi to'g'risidagi ma'lumotni rahbariyatga muntazam kiritib borish;

hududlarda "Salomatlik marafoni"ni tashkil etish, monitoring qilib borish va hisobotlarni qabul qilish vazifalari yuklatilsin.

**10.** Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi o'rtasida 2025-2027 yillarga tuzilgan tarmoq jamoa kelishuvining 2025 yildagi ijrosi to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**11.** Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi o'rtasida 2025-2027 yillar uchun tuzilgan tarmoq jamoa kelishuvining 2025 yilda bajarilishi etarli emas deb baholansin.

11.1. Tizimdagi barcha tashkilot va muassasa rahbarlari ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha ikki tomonlama tuzilgan komissiyalar ishini tizimli yo'lga qo'yish, ularni ijtimoiy sheriklikni mustahkamlovchi va xodimlar manfaatlarini himoya qiluvchi haqiqiy institutga aylantirish choralari ko'rsin.

**12. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (O.Sultonov)** Andijon viloyatida "Salomatlik marafoni" oyligini rejali va samarali tashkil etmaganligi bois Andijon shahar va Paxtaobod tuman birlashmalari boshliqlaridan tushuntirish xatlari olinib, "xayfsan" intizomiy jazosi berilsin.

**13. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari va tarmoq kasaba uyushmasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar Kengashlariga:**

tarmoq jamoa kelishuvini amalda tatbiq etilishini ta'minlash, aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli choralar ko'rish;

tashkilot va muassasalarda amalda bo'lgan va imzolanayotgan jamoa shartnomalarini tarmoq hamda hududiy jamoa kelishuvlar bilan muvofiqligini qayta ko'rib chiqish va ta'minlash;

mazkur tarmoq jamoa kelishuvi, hududiy jamoa kelishuvlari hamda jamoa shartnomalari ijrosini ta'minlash borasidagi mas'uliyatni yanada oshirish;

vazirlik tizimiga kiruvchi ish beruvchilarning kasaba uyushma tashkilotlari bilan birgalikda 2025-2027 yillarga mo'ljallangan tarmoq jamoa kelishuvining ijrosini sifatli amalga oshirish;

Mehnat kodeksi, qonun va qonunosti me'yoriy hujjatlarida belgilangan majburiyatlar asosida munosib mehnat sharoitlarini yaratish, mehnatni muhofaza qilish, gigienik, ekologik va biologik xavf-xatar muammolarni hal etish, ishlovchilar sog'lig'iga putur etkazilishini oldini olish, jarohatlanish, nogironlik va o'lim holatlari kamaytirilishi yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish va faol jamoatchilik nazoratini ta'minlash;

vazirlik tasarrufidagi barcha tashkilot va muassasalarda tuzilgan jamoa shartnomalarning 2025 yilda bajarilishiga bag'ishlangan yig'ilishlarni **joriy yilning aprel oyiga qadar** o'tkazish vazifalari topshirilsin.

**14. Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi (o.Safarov), Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (A.Alijanov), O'zbekiston sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi (F.Xanapiyaev) bilan birgalikda:**

**bir hafta muddatda** tibbiyot xodimlarning formasi uchun mablag'masalasini hal etish uchun Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasiga xat;

**ikki hafta muddatda** tibbiyot tashkilotlarini haftada 5-kunlik ishlash rejimiga o'tishi munosabati bilan pullik (ho'jalik hisobidagi) bo'limlar faoliyatni tashkil etishda yuzaga kelayotgan tegishli muammolarni bartraf etish bo'yicha mexanizmlarni ishlab chiqib, Moliya vazirligiga taklif kiritsin.